

## O'RTA ASRLAR DAVRIDA O'RTA OSIYODA QURILISH VA ME'MORCHILIK TARIXI

*Murodullayeva Aziza Xasanboy qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyodagi eng yirik o'rta asr shaharlarining qurilish va me'morchilik sohalari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. O'rta asrlar davri qurilish va me'morchilik sohalari hozirgi davr qurilish va me'morchilik sohalari bilan taqqoslangan. O'rta asrlar davri tarixi batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Me'morchilik, ganjkorlik, maqbara, xonaqoh, svilizatsiya, masjid.

O'rta asrlar me'morchiligi o'zining o'ziga xos uslubi, konstruktiv yechimlari va estetik xarakteristikasi bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratigan arxitektura yodgorliklari ko'pincha diniy ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyo me'morchiligi o'zining noyob tarzida, shakl va ranglarni, geometrik naqshlarni, yozuvlarni va o'ziga xos minora, masjid va madrasa kabi binolarni yaratish bilan ajralib turardi.

Mamlaktimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi, u xalqlarning qonida tarixiy xotirasida saqlanadi, va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash. O'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir." [1]

Tariximizni o'rganar ekanmiz qalbimizni faxr va iftixor tuyg'usi chulg'ab olaveradi. Biz shu boy ilmiy tariximizni davrlarga va sanalarga tayangan holda ilmiy manbalar yordamida o'rganamiz. Shu davrlardan o'rta asrlar davri tarixiga nazar solsak. O'rta asrlar tushunchasini dastlab tarix faniga italyan tarixchilar tomonidan olib kirilgan bo'lib, Yevropadan farqli o'laroq O'rta Osiyo mintaqasida milodiy V asrdan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

Mazkur davr o'z navbatida ilk, rivojlangan va so'ngi o'rta asrlarga bo'linadi.

Ilk o'rta asrlar davri milodiy V asrdan IX asrgacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda hozirgi O'zbekiston hududida Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd, Buxoro, Toxariston va Xorazm kabi tarixiy madaniy viloyatlar mavjud bo'lgan. Bu tarixiy viloyatlarning aholisi hunarmandchilik, kulolchilik, savdo-sotiq xususan qurilish va me'morchilik sohalari bilan shug'ullangan. Ushbu davrda mavjud bo'lgan Farg'ona vodiysida Axsikent, Quva, Ajinatepa, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Varaxsha, Toshkent vohasida Mingo'rik, Binkat, Tunkat, Banokat, Nukat, Kavardon, Chochtepa, Xonobodtepa kabi qadimgi qo'rg'on va shahar harobalari qad rostlagan.[2]

Rivojlangan o'rta asrlar davri milodiy IX asrdan XVI asrgacha bo'lgan tarixiy

davrni o‘z ichiga oladi. Rivojlangan o‘rta asrlar davri mahalliy mustaqil feodal hokimliklar o‘rnida yagona markazlashgan feodal davlat tashkil topishidan to temuriylar davlati inqirozigacha davom etadi. Bu davrni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan 2 ta taraqqiyot va 1 ta inqiroz bosqichiga bo‘lish mumkin.

Birinchi taraqqiyot bosqichining xronologik doirasi IX – XIII asr boshlarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda qurilish va me‘morchilik sohalari ham yaxshi rivojlangan. Bu davrda Minorai Kalon, Vobkent minorasi, Ismoil Somoniy maqbarasi,

O‘rta asrlar davri aholisining uylari hovlili, bolahonali va darvozali qilib qurilgan. Qurilshda xom g‘isht va paxsadan foydalanilgan. Pishgan g‘isht uylarning poydevorlariga va hovlining sahniga ishlatilgan. Qasr, masjid, madrasa va boshqa binolar peshtoq ustunli, gumbaz shaklida barpo etilgan.

Me‘morchilikda jome masjidlari qurilishiga alohida ahamiyat qaratilgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent va boshqa yirik shaharlarda bunday masjidlar mahobatli qilib qurilgan. Bular jumlasiga Bibixonim va boshqa masjidlarni kiritish mumkin.

Amir Temur va temuriylar davrida ham qurilish va me‘morchilik sohasiga alohida ahamiyat berilgan. Hoja Ahmad Yassaviy maqbarasi, Oqsaroy majmuasi, Bibi-Xonim jome masjidi, Ulug‘bek rasadxonasi, Samarqand, Buxoro, G‘ijduvon madrasalari me‘morchilikning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Temuriylar davrida shaharsozlikda me‘moriy an‘analar yangi uslublar bilan boyitildi. Bu davrda shaharlar tarxi to‘rtburchak bo‘lib, mustahkam mudofa devoriga burj va darvozalarga ega bo‘lgan. Har bir shaharda ark va hisor bo‘lgan. Shahar markazida usti yopiq savdo gumbazlari bo‘lgan. Barcha masjid, madrasa, xonaqohlar gumbaz shaklda turli xil naqshlar bilan bezatilgan holda bunyod etilgan. Bular jumlasiga Bibi xonim masjidi, Shohi zinda yodgorligi, Go‘ri Amir ansamblining asosiy qismi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Jahongir maqbaralarini misol qilishimiz mumkin. Bu inshootlar Amir Temur davrida qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan inshootlar hisoblanadi. Temuriylar davrida maqbaralar qurilishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu davrda qurilgan maqbaralar bir xonali va ikki xonali binolardan iborat holatda qurilgan. Bir xonali maqbaralarning ikkita turi bo‘lib, ularning biri chorvoq ko‘rinishidagi bino bo‘lib, ularning to‘rt tarafi ham bir xilda quriladi. Ikkinchisi gumbazli va peshtoqli binolar bo‘lib, ularning kirish qismiga peshtoq quriladi. Ularning go‘rxonalari ko‘pincha yer ostida bo‘ladi. Ko‘p xonali maqbaralar qozonxona, go‘rxona, masjid, kitobxona va boshqa xonalardan tashkil topgan.

O‘zbekiston me‘morligi juda qadimiyligi, turli-tuman me‘moriy yodgorliklari, yuksak nafosat mujassam bo‘lgan mahobatli asori-atiqalari bilan diqqat e‘tiborni tortadi. Bu zaminning ko‘plab ko‘hna shaharlari o‘zining noyob obidalari bilan dunyoga tanilgan. Ammo bu tarixiy obidalarni bunyod etish oson bo‘lmadi. O‘zbekiston me‘morligining asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan

an'analari, qonun qoidalari XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi mustamlaka davrida keskin zarbaga uchradi. Natijada me'morlar ijodi va tashabbusi tamoman inkor etilgan. Joylardagi yirik qurilish ishlariga chek qo'yildi. Oqibatta tajribali xalq me'morlari oddiy quruvchi, hatto mardikor darajasiga tushib qoldi.

Xalq me'morligi ikkinchi keskin zarbaga Sovet tuzumi davrida uchradi. Me'morlik davlat monopoliyasiga uchragani uchun me'morlar ijodi va tashabbusi tamoman inkor etilgani natijasida joylardagi yirik qurilishlar, ayniqsa, shaxsiy binokorlik cheklab qo'yildi, oqibatda tajribali xalq me'morlari oddiy quruvchi, hatto mardikor darajasiga tushib qoldi. Me'morlik ijodi Moskva normativlari asosida bajarilishi milliy me'morlikni so'ndirib qo'ydi. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik arxitektura" shiori XX asrning 2-yarmidan boshlab ba'zi ijodiy izlanishlarga yo'l ochdi (Alisher Navoiy teatri, Muqimiy teatri binolari kabi). O'sha davrda yaratilgan diqqatga sazovor binolarda xalq ustalari ishtiroki bilan ijobiy natijalarga erishildi. [3]

Istiqlol yillarida O'zbekiston me'morchiligi sohasining yanada rivojlanishi uchun yangi qadam bo'ldi. Me'morlik ravnaqi uchun keng ijod ufqi ochildi. Maxsus o'quv yurti ochilib, rasman haykaltarosh, ganjgor, naqqosh kabi mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston hukumatining sayi-harakati bilan yurtimizda o'rta asrlar davri me'morchiligini tiklash ishi jadal rivojlanmoqda. Jumladan, Prezident Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Samarqand tumanidagi eshkak eshish kanali bo'yida, 212 gektar maydonni egallagan "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazining barpo etilganligi fikrimizning dalilidir [4].

Hozirgi davr me'morchilik uslublari o'rta asrlar me'morchilik uslublari bilan murakkabligi va zamonaviyligi bilan ajralib turadi. O'rta asrlar davrida barcha binolar naqshinkor qilib gumbaz shaklda qurilgan bo'lib, xalqimizning milliy iftixoriga aylangan. Ular umumjahon madaniyatining durdonalaridan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". 1-jild. Samarqand T., 2017 .B.29.
2. Utayeva F.X. O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi. Darslik. – Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона, 2021. – 188 b.]
3. Me'morlik // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Me%CA%BCmorlik> [Murojaat qilingan sana: 25.03.2025]
4. Xalqaro turizm markazi – Samarqandning yangi sayqali // <https://president.uz/oz/lists/view/5455> [Murojaat qilingan sana: 30.03.2025]
5. HISTORY OF THE MITANNI STATE. (2025). Western European Journal of Linguistics and Education, 3(03), 52-54. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/2/article/view/2178>

6. Акбаров, Р. (2023). Вопрос электрификации Узбекистана в годы Второй мировой войны (по данным узбекской национальной прессы). Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 443–455. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16527>
7. Akbarov Rahmatillo. (2023). Coverage of issues related to social life in the uzbek national press during the second World war. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 47–52. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1003>